



CHARACTERISTICS OF STATE ENERGY POLICY MODELS AT THE MODERN STAGE

Oybek Gaybullayev

PhD Candidate

Tashkent Institute of Chemical Technology

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: energy, energy policy, energy relations, energy security, model, centralized model, liberal model, integration model, energy exporters, consumer countries, energy transit, oil crisis, energy dependence, alternative energy sources.

Received: 20.10.25

Accepted: 21.10.25

Published: 22.10.25

Abstract: This article examines the development trends of countries' energy policies. Current challenges in implementing state energy policy models have been analyzed. Models of state energy policy for countries rich in energy resources, net importers of energy resources, and transit countries are analyzed, along with their strengths and weaknesses.

Today, one of the most important tasks facing countries worldwide is achieving energy independence - ensuring constant access to sufficient energy resources. In a context of diminishing natural resources, increasing energy consumption, and expanding global environmental protection efforts, making the right choice among state energy policy models for diversifying the energy sector and organizing effective management of available resources is crucial for ensuring economic and social development, as well as political stability of any state.

In the conclusion, the article puts forward scientific recommendations on developing modern mechanisms for energy policy models based on the internal characteristics of countries' energy sectors.

ZAMONAVIY BOSQICHDA DAVLAT ENERGETIKA SIYOSATI MODELLARINING XUSUSIYATLARI

Oybek G'aybullayev

Tayanch doktorant

Toshkent kimyo-texnologiya instituti

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: energetika, energetika siyosati, energetika munosabatlari, energetika xavfsizligi, model, markazlashgan model, liberal model, integratsiya modeli, energiya eksportchilari, iste'molchi davlatlari, energiya tranziti, neft inqirozi, energetika qaramligi, muqobil energiya manbalari.

Annotatsiya: Mazkur maqolada davlatlar energetika siyosatining rivojlanish tendensiyalari o'rganilgan. Davlat energetika siyosati modellarini amaliyotga tadbqiq qilishda yuzaga kelgan dolzarb muammolar tahlil qilingan. Energiya resurslari boy va energiya resurlarining sof importchishi hamda tranzit mamlakatlarning davlat energetika siyosati modellari, ularning ustun va zaif jihatlari tahlil qilingan.

Bugungi kunda dunyo davlatlari oldida turgan eng muhim vazifalardan biri yetarli miqdordagi energiya resurlari bilan doimiy ta'minlanganlik – energetika mustaqilligiga erishish masalasidir. Tabiiy resurslar kamayib, energiya istemoli o'sib borayotgan, shuningdek butun dunyoda tabiatni asrash sari harakatlari kengayib borayotga bir sharoitda energetika sohasini diversifikatsiya qilish, mavjud resurslarini samarali boshqarishni tashkil etishda davlat energetika siyosati modellari o'rtasida to'g'ri tanlov qilish har qanday davlatning iqtisodiy, ijtimoiy rivojlanishi va siyosiy barqarorlikni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Maqolaning xulosa qismida davlatlar energetika sohasining ichki xususiyatlaridan kelib chiqib, energetika siyosati modellarining zamonaviy mexanizmlarini shakllantirish borasidagi ilmiy tavsiyalar ilgari surilgan.

**ОСОБЕННОСТИ МОДЕЛЕЙ ГОСУДАРСТВЕННОЙ ЭНЕРГЕТИЧЕСКОЙ
ПОЛИТИКИ НА СОВРЕМЕННОМ ЭТАПЕ**

Ойбек Гайбуллаев

Соискатель степени PhD

Ташкентский химико-технологический институт

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: energetika, energeticheskaya politika, energeticheskie otnosheniya, energeticheskaya bezopasnost', model', centralizovannaya model', liberalnaya model', integratsionnaya model', eksportery energii, strany-potrebiteli, energotransit, neftyanoy krizis, energeticheskaya zavisimost',

Аннотация: В данной статье рассматриваются тенденции развития energeticheskoy politiki gosudarstv. Проанализированы актуальные проблемы, возникающие при реализации моделей государственной energeticheskoy politiki. Исследованы модели государственной energeticheskoy politiki stran, bogatых

альтернативные источники энергии.

энергоресурсами, чистых импортеров энергоресурсов, а также стран-транзитеров, их преимущества и недостатки.

На сегодняшний день одной из важнейших задач, стоящих перед странами мира, является достижение энергетической независимости - постоянное обеспечение достаточным количеством энергетических ресурсов. В условиях истощения природных ресурсов, роста энергопотребления, а также расширения природоохранных мероприятий во всем мире, диверсификация энергетического сектора и правильный выбор моделей государственной энергетической политики для эффективного управления имеющимися ресурсами имеют важное значение для обеспечения экономического, социального развития и политической стабильности любого государства.

В заключительной части статьи представлены научные рекомендации по формированию современных механизмов моделей энергетической политики с учетом внутренних особенностей энергетического сектора государств.

Kirish. Energetika bir qator mamlakatlar iqtisodiyoti va siyosatining asosiy omili hisoblanadi. Davlatlar davlatlar energetika siyosatini tahlil qilish bizga bu sohadagi bir qancha modellarni aniqlash imkonini beradi. Bunda biz ikki asosiy mezonga diqqat qaratmog'imiz lozim. Birinchisi energetika siyosatini shakllantirish xususiyatlari bilan bog'liq bo'lib, uning davlat iqtisodiy siyosati bilan o'zaro bog'liqligini o'zida aks ettiradi. Iqtisodiyotida energiya resurslarining ulushi yuqori bo'lgan davlatlarda energetika strategiyasi va iqtisodiy siyosatning umumiy yo'nalishlari bir-biridan mustaqil shakllana olmaydi. Natijada ularda energetikaga iqtisodiyotning davomi va ajralmas qismi sifatida qarab, butun iqtisodiy siyosatga xos tamoyillar bu sohaga ham tadbiiq etiladi. Ikkinchi mezon davlatning energetika siyosatini shakllantirishda ishtirok etish darajasini aks ettiradi.

Globalashuv sharoitida davlatlarning energetika xavfsizligini taminlash xalqaro munosabatlarning eng muhim vazifalaridan biriga aylanmoqda. Uglevodorod zahiralarning kamayishi, energiya resurslarini ishlab chiqaruvchi mintaqalarda inqirozli holatlarning kuchayishi, butun dunyoda aholi soning ortishi bilan parallel ravishda energiya istemolining ortib borishi, shuningdek, jahon hamjamiyatida iqlim o'zgarishlarining insoniyatga ko'rsatishi mumkin bo'lgan salbiy oqibatlarini kamaytirish maqsadida muqobil energiya manbalaridan

foydalanishga o'tish jarayonlari fonida davlat energetika siyosati modellarini maqbul variantlarini ishlab chiqish va amaliyotga tadbiq etish xalqaro munosabatlar ishtirokchilari uchun muhim vazifaga aylanmoqda.

Tadqiqotning maqsadi energetika munosabatlari ishtirokchilarining manfaatlarini inobatga olgan holda resurlarni yetkazib beruvchi, iste'mol qiluvchi hamda transit mamlakatlarida davlat energetika siyosatini samarali tashkil etishda qo'l keladigan energetika siyosati modellarini taklif etishdir.

Buning uchun davlatlar energetika siyosati modellarlarini xususiyatlarini ko'rib chiqish va xalqaro energetika munosabatlari ishtirokchilari uchun energetika siyosati modellarining maqbul variantlarini tahlil qilish lozim.

Tadqiqot usullari. Ilmiy maqolani yozishda tarixiylik, tizimli tahlil, qiyosiy tahlil, shuningdek statistic tahlil usullaridan foydalanildi.

Natijalar. Davlat energetika sohasidagi munosabatlarni shakllantirish va tartibga solishda davlatning ishtiroki darajasiga qarab davlat energetika siyosatining asosiy modellarini quyidagi turlarga ajratish mumkin: markazlashgan model, liberal model, integratsiya modeli (Вутянова, 2013).

Markazlashgan model asosida o'z energetika siyosatini shakllantiradigan davlatlarda mahsulot ishlab chiqarish, tasqimlash bilan bog'liq tartiblar va narx davlat tashkilotlari nazorati ostida shakllantiriladi. Ushbu model energiya resurslarining sezilarli zaxiralariga ega bo'lgan davlatlarga xos bo'lib, mustaqil mahalliy va xorijiy sub'ektlar uchun energetika sanoati yanada yopiq tabiati bilan xarakterlanadi. Energiya ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash jarayonlari bir yoki bir nechta davlat kompaniyalari qo'lida to'planib, xususiy sektor ishtiroki minimal yoki qat'iy litsenziyalar bilan cheklanganadi. Narxlar kabi investitsiya siyosati ko'pincha hukumat tomonidan belgilanadi.

Markazlashgan modelda energetikaga butun iqtisodiyotining poydevori, uni rivojlantirishning resurs bazasi sifatida qaraladi. Bunday model energiya resurslariga boy Turkmaniston, Venesuela, Eron va Saudiya Arabistoni kabi davlatlarda keng tarqalgan. Ushbu davlatlarda energetika sohasida sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida davlat sektorining ulushi yuqoriligicha saqlanib qolmoqda. Energiya manbalarining narxi arzonligi aholi uchun ijobiy ahamiyat kasb etsada, sohadagi moliyaviy muammolar davlat budjeti hisobida subsidiyalanishi, modernizatsiya uchun investitsiyalarni jalb qilishdagi qiyinchiliklar bu modelni kamchiliklarini ko'rsatadi.

Markazlashgan modelning yana bir muhim xususiyati davlatning mamlakat resurslariga monopol egalik qilishga intilishidir. Davlat energetika sohasidagi yetakchi aktivlarni o'z qo'lida

saqlab qolish orqali davlatning asosiy resurslar ustidan nazoratni amalga oshirish istagini namoyon etadi. Shu bilan birga, energetika siyosati umuman iqtisodiyotdan ajratilgan holda shakllantiriladi. Energetika siyosatining milliy-monopol modelini ifoda etuvchi mamlakatlar boshqa davlatlar bilan o'zaro munosabatlardagi eng muhim vositalardan biri sifatida tashqi siyosatda o'z resurslaridan faol foydalanishi bilan tavsiflanadi.

Shu o'runda aytish kerakki, energetika siyosatida davlat yetakchiligi mamlakat rivojlanishi bilan bog'liq jarayon bo'lib, milliy iqtisodiyot rivojlanib borgan sari sohaga xususiy sektorning kirib kelishiga kengroq imkoniyatlar taqdim etib boriladi. Ya'ni markazlashgan modeldan liberal modelga (monopol boshqaruvdan – liberal boshqaruvga) o'tish tendensiyasi kuzatilishi mumkin.

Davlat energetika siyosatining ikkinchi modeli liberal model bo'lib, raqobatbardosh bozorni rivojlantirishga yo'naltirilganlik, energetika boshqaruvida davlat ulushining katta emasligi, davlat vazifalari xususiy korporatsiyalarni nazorat qilish va ishtirokchilar uchun munosib sharoit yaratishdan iborat ekanligi bilan tasiflanadi. Bu modelda resurslar narxi bozor munosabatlaridan kelib chiqqan holda shakllanadi. Bozorda bir qancha yetkazib beruvchilar mavjudligi hisobiga iste'molchida tanlov imkoniyati mavjud bo'ladi. Talab va taklifdan kelib chiqqan holda narxlar o'zgaruvchanligini liberal model kamchiligi deb hisoblash mumkin.

Energetika siyosatining ushbu modelining paydo bo'lishi XX asrning oxirgi choragida G'arbiy Yevropaning bir qator mamlakatlarida iqtisodiyotga davlat aralashuvini kamaytirishga qaratilgan elektr energiyasi va gaz sanoatidagi islohotlar bilan bog'liq. Islohotlar boshlanishidan avval dunyoning ko'pgina davlatlarida energetika, odatda, davlat yoki davlat nazorati ostidagi tuzilmalar tomonidan amalga oshirilishi lozim bo'lgan faoliyat deb hisoblangan.

Biroq, 1980-yillarda iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish borasida tub o'zgarishlab yuz berdi. Barcha sohalarda davlat aralashuvini qisqartirishni nazarda tutuvchi liberal qarashlar ustun mavqeni egalladi. Bu yondashuvning eng yorqin misoli sifatida AQSh da Ronald Reygan va Buyuk Britaniyada Margaret Tetcher islohotlarini keltirishimiz mumkin. Ularning har ikkisi monopolistik hisoblangan bozorlarni, birinchi navbatda, gaz va elektr energiyasi sohasini davlat tomonidan tartibga solinishini bekor qilishdi. Islohotlar natijasida gaz sanoatining institutsional tuzilmalarida sezilarli o'zgarishlar ro'y berdi. Jumladan, ishlab chiqaruvchilar narxlarini davlat tomonidan tartibga solishdan voz kechildi; xususiylashtirish amalga oshirildi; yirik iste'molchilarga o'z yetkazib beruvchisini o'zi tanlash huquqi ta'minlandi.

Tarmoqlarni liberallashtirishning dastlabki bosqichida ijobiy natijalar yaqqol ko'zga tashlandi. Ishlab chiqaruvchilar o'rtasida raqobat kuchaydi, ishlab chiqarish hajmi o'sdi. Bu esa mahsulot tannarxining sezilarli darajada pasayishiga olib kelib, energetika bozori rivoji va umuman iqtisodiyotning rivojlanishi uchun rag'batga aylandi. Shu tariqa AQShda 1988-1995-

yillarda ulgurji gaz narxi 26%ga pasaygan bo'lsa, Buyuk Britaniyada 1990-1999-yillarda sanoat sohasida gazning o'rtacha narxi 45%ga, uy xo'jaliklari iste'moli uchun esa 20%ga pasaydi (Миллер, 2009).

2000-yillarning boshlaridan energetika sohasidagi liberallashtirishning qisqa muddatli ijobiy natijalari inqirozli hodisalar bilan almasha boshladi. Energetika sohasida raqobatbardosh munosabatlarning joriy etilishi natijasida iste'molchilar uchun energetika manbalarining narxi tushib ketdi, ayniqsa yirik iste'molchilar uchun bu holat sezilarli darajaga chiqdi. Birgina elektr energiyasining chakana narxi Buyuk Britaniyad uy xo'jaliklari uchun 1990-2000-yillar oralig'ida 22 foizga, kichik ishlab chiqaruvchilar uchun 39% foizga pasaydi (Hunt, 2002). Shunga o'xshash holat AQShda ham yuz berdi. 1996-yil shimoliy-sharqiy shtatlarda, 1998-yilda shimloiy shatlarda yuz bergan tabiiy ofatlar 2003-yilda yana takrorlanib, tizim uchun ulkan yo'qotishlarga sabab bo'ldi. Raqobatbardosh gaz va elektr energiyasi bozorlari zararni bartaraf etish, keng ko'lamli loyihalarni moliyalashtirish uchun investitsiyalarni jalb qilish mexanizmlarini ishlab chiqa olishmadi. Energiya resurslarining tanqisligi yuz berib, narxlar oshishi kuzatila boshladi. Asr boshida yuz bergan yuqoridagi o'zgarishlarning oqibati o'laroq, AQSh, Yevropa Ittifoqi va boshqa bir qator davlatlar energetika sohasida bozor munosabatlarini rivojlantirish bo'yicha o'z qarashlarini qayta ko'rib chiqishga majbur qildi. Yevropa Ittifoqi energetika sohasida erkin bozor munosabatlarini cheklovchi bir qancha hujjatlar, jumladan, elektr ta'minoti ishonchliligi standartlarini belgilovchi qonun qabul qilindi (Миллер, 2009). Raqobatbardosh bozordan voz kechib, sohaga davlat tomonidan tartibga solishni qaytadan joriy etish boshlandi.

Shu tariqa, bir qator davlatlar misolida energetika tarmoqlarini liberallashtirish orqali davlat energetika siyosatining milli-raqobatbardosh modelini joriy etish sohaga xususiy investitsiyalarni jalb qilish, iste'molchilarni energiya bilan ta'minlash samaradorligi va ishonchliligini oshirish bo'yicha asosiy muammolarni hal etishga qodir emasligini ko'rsatdi. Narxlar oshishi tarmoqdagi xususiy sector daromadlarini oshirishi mumkin, lekin bu samaradorlik va ishonchlilik ta'minlanishini anglatmaydi.

Bu holatda har qanday davlat oldida ikkita yechim yo'li mavjud bo'ladi:

1. Milliy raqobatbardosh model rad etiladi va energetika sohasida davlat nazorati kuchaytiriladi. AQSh, Argentina va Chili kabi davlatlar tomonidan tanlangan yo'l shudir.
2. Davlat energetika siyosatini integratsiyalashtirish, energiyani boshqarish bo'yicha umumiy standartlar va qonunlarni ishlab chiqish. Umumiy energetika bozorini yaratish.

Xalqaro munosabatlarning zamonaviy voqeligi va globallashtirish energetika siyosatining uchinchi modelini – integratsiyalashgan modelni shakllanishiga sabab bo'lmoqda. Unga ko'ra

umumiy energetika bozori yaratiladi va bir qator davlatlar uchun yagona energetika siyosati ishlab chiqiladi. Bozor munosabatlari joriy qilinib, erkin raqobatga yo'l ochiladi. Ushbu model xususiy kapitalni jalb qilishi, ishtirokchilar manfaatlari uyg'unligi va ehtiyojdan kelib chiqib moslashuvchan xarakterga ega bo'lishi bilan afzaldir. Ishtirokchi tomonlarning energetika siyosati o'rtasidagi tavovutlarni esa uning kamchiligi sifatida ko'rsatish mumkin. Bugungi kunda Yevropa Ittifoqi va Skandinaviya mamlakatlari energetika siyosatida integratsiya modeli aniq ifodalanganligini ko'rishimiz mumkin. 1985-yilda Yevropa Komissiyasi tomonidan ishlab chiqilgan Yevropa qit'asida energetikani rivojlantirish tamoyillari 1993-yil 1-yanvardan boshlangan yagona ichki bozorni shakllantirish siyosatiga parallel ravishda amaliyotga tadbqiq qilindi (Романюк, 1999). Unga ko'ra tabiiy resurslardan foydalanish hisobiga texnologik taraqqiyotni jadallashtirish modelidan voz kechilib, mehnat va tabiiy resurslar iste'molini kamytiradiga, qisqasi, unumdorlikka urg'u berishga asoslangan yo'l tanlanishi takidlandi. Atrof-muhitni iflostirganlik uchun soliq joriy etildi, resurslardan unumli foydalanishni ta'minlash maqsadida ichki energiya bozorlarini monitoring qilib borish amaliyoti yo'lga qo'yildi, ishlab chiqarish jarayonida ekologik normalarning tadbqiq qilina boshlandi.

Energetika siyosatidagi liberal va integratsion modellar o'zining asosiy tamoyillari bo'yicha bir-biriga juda yaqin ekanligini ta'kidlash lozim. Har ikkala modelning xarakterli xususiyatlari energetika sohasida raqobatbardosh munosabatlarning rivojlanishi, davlat energetika siyosatiga umumiy iqtisodiy siyosatning ajralmas qismi sifatida munosabatda bo'lishidadir. Ularda aslida davlatning roli yuqori bo'lsada, asosiy e'tibor bozor faoliyati uchun shart-sharoitlarni shakllantirishga (xususan, normativ-huquqiy bazani yaratish), munosabatlarni boshqarishga qaratilishi lozim.

Muhokama. Energetikasida islohotlarni amalga oshirish amaliyoti shuni ko'rsatadiki, barcha davlatlar dastlabki bosqichda o'z energetika siyosatini shakllantirishda bir xil muammolar majmuasiga duch kelishadi. Birinchidan, bu davlatlarni islohot o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilishga majbur qilgan sabablarning umumiyligi bilan bog'liq. Shuningdek, sohani boshqarishdagi samarasizlik va modernizatsiyani amalga oshirish uchun zarur bo'lgan investitsiyalarning yo'qligini ham ko'rsatish mumkin. Davlat mulkini xususiylashtirish, tarmoqni faoliyat turlari bo'yicha ajratish (monopol va raqobatbardosh kabi), narxlarni erkinlashtirish va bu orqali energetikada raqobat modelini joriy etish yo'li bilan bu holatdan chiqish mumkin edi. Biroq islohotlarning dastlabki davrida bir qancha ijobiy natijalar kuzatilsada, raqobatbardosh bozor mavjudligining keying bosqichlarida ko'p davlatlarda narx ko'tarilishi, ta'minot uzilishlari, rivojlanish uchun investitsiyalarning yetishmasligi, yangi ishlab chiqarish quvvatlarining ishga tushirilmasligi kuzatiladi.

Bugungi kunda davlatlar energetika siyosatining markazida an'anaviy tabiiy energiya resurslaridan foydalanish va yaqin kelajakda muqobil energiya manbalarini faol joriy etish g'oyasi turibdi. Davlat energetika siyosatini an'anaviy manbalari va qayta tiklanadigan, uglevodorodlarga muqobil energiya manbalarining energetikadagi nisbatiga qarab ishlab chiqilmoqda. Shu jihatdan kelib chiqib, energetika siyosati modellarini an'anaviy (eksportga yo'naltirilgan) va muqobil energetika modeli kabi toifalarga ham ajratib tahlil qilish mumkin.

An'anaviy energetika modeli katta hajmda ega bo'lgan tabiiy resurslarni eksport qilish, xomashyoni sotishdan olingan qo'shimcha foydadan davlat ehtiyojlari uchun foydalanish, uning bir qismini mamlakat iqtisodiyotini modernizatsiya qilishga yo'naltirishga asoslanadi. An'anaviy modelni ifodalovchi davlatlarda tabiiy resurslarning mavjudligi va ulardan foydalanish iqtisodiyotning energetika sektorini boshqa tarmoqlar hisobiga nomutanosib yuqori darajada rivojlanishiga olib kelishi mumkin. Ushbu modelni ifodalovchi davlatlarning energiya resurslari ular uchun geosiyosiy ta'sir vositasi bo'lishi mumkin.

Iqtisodiyoti xomashyo bazasiga asoslangan an'anaviy model vakillari bo'lgan davlatlar qatoriga Rossiya Federatsiyasi, AQSh, Kanada, Venesuela, Ozarbayjon, Turkmaniston, Qozog'iston va bir qancha arab davlatlarini kiritish mumkin. Ushbu mamlakatlarning iqtisodiyoti, budgetining asosiy qismi energiya resurslari eksportiga bog'liq. Bu bir qator mamlakatlarda iqtisodiyotning energetikadan boshqa barcha tarmoqlari rivojlanishida "turg'unlik"ka va shunga mos ravishda ishlab chiqarish inqiroziga olib keladi.

Shunday bo'lsada, tabiiy resurlarning katta zahiralarga ega bo'lgan ko'plab davlatlar farovonlik va sanoat taraqqiyotining yuqori darajasiga erishganliklarini aytib o'tish joiz. Masalan, farovonlik ko'rsatkichlariga ko'ra dunyoda yetakchi o'rinda turuvchi Norvegiya (uz.24.uz, Toshkent) neftga boy va dunyodagi eng yirik gidroenergiya manbalaridan biri hisoblanadi. Mamlakat neft sanoati to'g'ridan-to'g'ri davlat ishtirokidagi moliyaviy institutlar hamda asosiy aksiyalariga davlat egalik qiluvchi "Statoil" neft kompaniyasi tomonidan nazorat qilinadi.

AQSh va Kanadada davlat neft qazib olishning oxirgi bosqichida bo'lgan konlarni yoki unumdorligi past bo'lgan kichik yer osti uchastkalarini ishlatadigan neft kompaniyalari uchun soliq imtiyozlaridan foydalanadi. Bu esa butun neft qazib olishning 30-40 foizini tashkil etadi.

Norvegiya, Kanada va AQShda xomashyo sektorining ko'لامي ilm-fanga asoslangan texnologiyalarni rivojlantirish va infratuzilma loyihalarini moliyalashtirish sohasida yutuqlarga erishish imkonini beradi. Sanoat, kommunal xo'jalik, yoqilg'i-energetika kompleksini texnik modernizatsiya qilish, yoqilg'i-xomashyo bazasini jadal rivojlantirish shular jumlasidandir. Ichki energetika balansini optimallashtirish, qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanishni

rag'batlantirish, atrof-muhitni muhofaza qilish ushbu mamlakatlar energetika siyosatining ustuvor yo'nalishlariga aylandi. Xususan, so'ngi yillarda ularda diversifikatsiyalangan, yuqori raqobatli ichki energetika bozorlarining rivojlanishi ko'zga tashlanmoqda.

Biroq, innovatsiyalarni joriy etish an'anaviy modelning yana bir vakili – Venesuala uchun xos emas, bu yerda neft va gaz sanoati to'liq davlat nazorati ostida va eksport daromadlarining taxminan 80 foizini ta'minlaydi. Mamlakat rasmiylari xomashyo sektoridan olingan daromadlarni ijtimoiy sohaga qayta taqsimlashga intilmoqda, biroq moliyaviy mablag'lar iqtisodiyotni modernizatsiya va diversifikatsiya qilishga yo'naltirilmayapti. Shuning uchun mamlakat iqtisodiy sohasining jahon xomashyo narxlariga bog'liqligi saqlanib qolmoqda. yana bir an'anaviy model vakili Saudiya Arabistonida esa davlat budjetining 75 foizi neft eksportidan olingan daromadlar hisobiga shakllanadi. An'anaviy model vakillari bo'lgan aksariyat mamlakatlarda to'liq xomashyo qaramligidan chiqish energetika sohasining ortiqcha daromadlarini soliqlar yordamida yanada istiqbolli tarmoqlarga qayta taqsimlash asosida amalga oshiriladi. Bundan tashqari, energiya resurslarining katta zaxiralariga ega bo'lgan davlatlar ulardan, birinchi navbatda, xomashyo import qiluvchi mamlakatlarga nisbatan siyosat quroli sifatida foydalanadilar (Вутянова, 2013).

Hozirgi kunda dunyoning bir qator mamlakatlari e'tibor qaratayotgan muqobil energetika modeli tabiiy resurlarning sezilarli zahiralari ega bo'lmagan va tabiiy resurslarning kamayib borishi oqibatlarini oldindan ko'ra olgan mamlakatlarda faol joriy etilmoqda. Bu davlatlar o'z iqtisodiyotida an'anaviy energiya manbalari ulushini kamaytirish, fan-texnika taraqqiyoti asosida ekologik standartlarni rivojlantirish, o'z energetika mustaqilligini mustahkamlash va uglevodorodlarni eksport qiluvchi mamlakatlarning geosiyosiy ta'sirini kamaytiroshga intilmoqdalar. Jumladan, AQSh va Xitoy Xalq Respublikasi kabi eng yirik ishlab chiqaruvchilar uglevodorodlarning katta hajmlaridan foydalanish jarayoni qayta tiklanadigan energiya manbalarini faol rivojlantirish bilan birgalikda davom ettirilmoqda. Ushbu davlatlarda energetika sohasida raqobatbardoshlikni oshiradigan qayta tiklanuvchi energiya manbalarini (QTEM) qo'llab-quvvatlashning turli chora tadbirlari qonunchilik darajasida nazarda tutilgan. AQShda qayta tiklanadigan energiya uchun imtiyozli ta'riflar to'g'risidagi qonun 1978-yilda qabul qilingan, bugungi kunda aksariyat shtatlarda muqobil energetikani rivojlantirishni rag'batlantiruvchi dasturlar mavjud. Masalan, Kaliforniyada elektr energiyasining qariyb 30 foizi qayta tiklanadigan energiya manbalari asosida ishlab chiqariladi. QTEM uchun imtiyozli ta'riflar Xitoy qonunchiligida ham ko'zda tutilgan.

Bugungi kunda 100 dan ortiq mamlakat ekologik toza muqobil energetikani rivojlantirishni qo'llab-quvvatlamqda. Xalqaro Energetika Agentligi 2024-yilgi hisobotida keltirilishicha, jahon

umumiy energiya iste'molida qayta tiklatuvchi energiya manbalarining ulushi taxminan 14 foizni, elektr energiyasi ishlab chiqarishda esa taxminan 30 foizni tashkil etmoqda (IEA, 2024). Qayta tiklanadigan energiya tabiiy resurslar – quyosh, shamol, suv toshqini va geothermal energiyadan olinadi. Ko'p davlatlarda muqobil energetikaga o'tish harakatlari davom etmoqda. Sanoati rivojlangan mamlakatlarda 2030-yilga borib yangi muqobil energetika tizmi shakllanishi kutilmoqda.

Qayta tiklanadigan energiyaning dunyodagi eng yirik iste'molchilari Yevropa Ittifoqi, AQSh va Xitoy Xalq Respublikasidir. Ushbu mamlakatlar an'anaviy tabiiy resurslardan foydalanish o'rniga, muqobil manbalar asosida yangi energetika modelini shakllantirish rejalarini ilgari surmoqdalar. Lappeyranta texnologiya universiteti (Finlandiya) va Energy Watch xalqaro tadqiqot guruhi vakillari Kristian Breyer va Hans Josef Fall Yevropa Ittifoqi davlatlarining muqobil energetikaga o'tishlari borasida tadqiqotlarida quyidagilarni bayon etadilar: "2050-yilga borib mavjud texnologiyalar asosida elektr ta'minoti tizimining to'liq dekarbonizatsiyasi amalga oshirilishi kutilmoqda va u amaldagi tizimdan arzonroqqa tushadi. Energetik burilish allaqachon texnik yoki iqtisodiy muvofiqlik masalasi emas, faqat siyosiy vaziyatga bog'liq bo'lib qolgan. Qazib olinuvchi yoki atom energoresurslarga hatto bir dollar kiritishdan ma'no yo'q, qayta tiklanuvchi energiya tejamli energiya ta'minotini minlamoqda. Istiqboldagi ko'mir, yadro, gaz va neft sanoatini kengaytirishga doir barcha rejalar to'xtatilishi kerak" (www.kun.uz, 2017). Demak, olimlar fikricha muqobil energiyaga o'tish texnik va iqtisodiy tomondan foydali.

Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida muqobil energetikaning rivojlanishi nafaqat import yoqilg'iga qaramlikni minimallashtirish istagi bilan, balki Yevropada atrof-muhit holatini yaxshilash istagi bilan ham bog'liq. Muqobil energiyaga o'ti ikki jihatdan shubha ostiga olinmoqda. Birinchidan, shamol generatorlari va quyosh batareyalari yordamida olingan energiya qimmat. Ikkinchidan, fotoelementlar tarkibida zaharli galliy, qo'rg'oshin, kadmiy mavjud. Shuningdek, ularni qayta ishlash jarayonini zararsiz tashkil etish imkonsiz. Narx masalasiga to'xtalsak Kristian Breyer va Hans Josef Fall hisob-kitoblariga ko'ra, 2050-yilga borib qayta tiklanuvchi energiyaning o'rtacha qiymati (2015 yilgi MVt/s uchun 70 yevrodan) MVt/s uchun 52 yevrogacha pasayib ketadi (www.kun.uz, 2017). Qayta ishlash jarayonidagi atmosfera zaharlanishi masalasi esa Fransiya va Germaniyada shamol generatorlari va quyosh panellari qurilishiga qarshi bir qator namoyishlar bo'lib o'tganligiga qaramy davom ettirilmoqda.

Xitoy yirik energiya iste'molchisi sifatida qayta tiklanadigan energiyaga sarmoya kiritish bo'yicha AQShni ortda qoldirib, dunyodagi eng yirik investor hisoblanadi. Jami elektr

energiyasining beshdan bir qismi qayta tiklanuvchi energiya manbalari, jumladan, quyosh va gidrostansiyalar tomonidan ishlab chiqariladi.

Xitoy hukumati ham muqobil energiyaga o'tish ishlarini jadallik bilan davom ettirmoqda. Jumladan 2024-yil dekabrda hukumat Tibet tog'liklarining sharqiy qismida ulkan gidroelektrstansiyasini qurish loyihasini ma'qulladi. Qayd etilishicha, GES Yarlung Sangpo daryosida barpo etiladi. Qurilish ishlari rejalashtirilgan daryo qismi 2 kilometrlik balandlik farqiga ega va uzunligi 50 kilometr bo'lib, ulkan gidroenergetik salohiyatga ega. Yangi GESning to'g'oni dunyodagi eng yirik to'g'on bo'ladi. U har yili 300 million kVt/soat elektr energiyasi ishlab chiqaradi. Bu ayni paytda dunyodagi eng yirik GES hisoblangan Xitoydagi "Uch dara"dan uch baravar ko'p degani.

Yangi elektr stansiyasini mamlakatdagi eng yirik qurilish kompaniyalaridan biri – Power Construction Corp of China quradi. Qurilishga jami sarmoyalar 1 trillion yuandan (137 milliard dollar) oshishi mumkinligi kutilmoqda. Bu esa ushbu GESni dunyodagi eng qimmat infratuzilma loyihasiga aylantiradi (Jalg'ashev, 2024).

Xitoyda qayta tiklanadigan energiya manbalarini kvotalash tizimini yaratilgan bo'lib, uning asosida ushbu manbalarda ishlaydigan elektr stansiyalari va korxonalar uchun qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish uchun majburiy kvotalar belgilanadi. Ushbu tizim muqobil energiyadan kengroq foydalanishga ko'maklashadi.

Ko'pincha an'anaviy energiya manbalarini muqobil energiyaga almashtirishga bo'lgan intilishlarga populistik g'oya sifatida qaraladi. Masalan, Barak Obamaning 2008 va 2012-yillardagi prezidentlik saylovoldi dasturlarining asosiy bandlaridan biri yangi energetika g'oyasi bo'lib, u iqtisodiyotning energiya samaradorligini sifat jihatdan oshirish, ilmiy-texnik taraqqiyot asosida ekologik standartlarni ko'tarish, shuningdek, xomashyo eksport qiluvchilarga qaramlikni kamaytirish, shu jumladan, qayta tiklanadigan energiya manbalaridan faolroq foydalanishni o'z ichiga oladi. Ammo bugungi kunda AQSh an'anaviy resurslardan faol foydalanishda davom etmoqda. Shu bilan birga, suyultirilgan tabiiy gazning katta zaxiralari topilishi AQSh energetika sektorida uglevodorodlar ulushini sezilarli darajada oshirdi.

Bugungi kunda energetika siyosatining muqobil modelini to'liq amaliyotga tadbqiq etish davlat amalga oshirishi qiyin bo'lgan tanlovdir. Yanada raqobatbardosh energetika bozorini barpo etish va butun energetika sektorini asosan muqobil energiya manbalaridan foydalanishga o'tkazish uzoq muddatli hamda yuqori xarajatli ustuvor vazifa bo'lib qolmoqda.

Xulosa. Xulosa qiladigan bo'lsak, markazlashgan model energetikani boshqarishning ko'rsatmali modeliga intilish, davlatning asosiy resurslarni nazorat qilishga intilishi, energetika tarmoqlarida davlat mulkining yuqori ulushi, energetika siyosati iqtisodiy siyosatdan

ajratilganligi kabi sifatlariga ega. Liberal model erkin raqobat bozorini rivojlantirishga yo'naltirilganligi, energetika siyosati umumiy iqtisodiy siyosatning tarkib qismi ekanligi, sohada davlat ulushining kamligi, xususiy korporatsiyalar ishtiroki uchun sharoit yaratilganligi bilan farqlanadi. Integratsion model esa integratsiyalashgan bozor uchun sharoit yaratishni, milliy davlatlarning roli sezilarli darajada kamligi, milliy manfaatlardan ko'ra mintaqaviy manfaatlarga ustuvorlik berilishi bilan xarakterlanadi.

Qator mamlakatlar, jumladan, postsovet hududidagi mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, bugungi kunda davlat energetika siyosatining yanada maqbul modelini izlash zarur. uning asosini davlat nazorati ostidagi sog'lom raqobat va strategik loyihalarga investitsiyalarni jalb qilishni qo'llab-quvvatlash o'rtasidagi muvozanatli uyg'unlashuv tashkil etadi.

Markazlashgan modeldagi davlatning yetakchi roli xususiy sector ishtirokining cheklanganligi natijasida infratuzilmaning eskirishi va investitsiya kamayishi hisobiga modernizatsiya masalasida muammolar yuzaga kelishi mumkin. Liberal modeldagi bozor munosabatlari esa davlat siyosatining ijtimoiy jihatlariga doim ham mos tushavermaydi. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, bugungi kunda eng maqbul davlat energetika siyosati modeli bu integratsiyalashgan modeldir.

Dunyo tajribasida muammolarni hal etishda ularga institutsional yondashuvlar asosida yechim izlash o'z so'zini aytib bormoqda. Shu bois o'zaro hamkorlik, integratsiya jarayonlari energetika sohasiga ham tadbiq etilishi unda ishtirok etuvchilarning energet mustaqilligiga sabab bo'lishi mumkin.

Xalqaro energetika munosabatlari ishtirokchilari energetika munosabatlarining zamonaviy arxitekturasini shakllantirish uchun quyidagilarga e'tibor qaratishlari lozim:

1. Energetika munosabatlari ishtirokchilari bo'lgan davlatlar va transmilliy korporatsiyalar faoliyatini boshqarish va muvofiqlashtirish mexanizmlarini shakllantirish va ularni doimiy ishlashini nazorat qilish kerak.
2. Yagona energiya boshqaruvi konsepsiyani ishlab chiqish, bunda iqlim o'zgarishlari doir qarash o'z aksini topishiga e'tibor qaratish muhim.
3. Energiya manbalarini diversifikatsiya qilish jarayonini yangi bosqichga ko'tarishda xalqaro va mintaqaviy institutsional tuzilmalar bilan aloqalarni mustahkamlash muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. DePersio, G. (2025, 02 22). How Does the Price of Oil Affect Venezuela's Economy? Retrieved from www.investopedia.com:

<https://www.investopedia.com/ask/answers/032515/how-does-price-oil-affect-venezuelas-economy.asp>

2. Hunt, S. (2002). Making Competition Work in electricity. Making Competition Work in electricity. New York: John Wiley & Sons, Inc.
3. IEA. (2024, 10). Renewables 2024 Analysis and forecast to 2030. Retrieved from www.iea.org: www.iea.org
4. Jalg'ashev, S. (2024, 12 28). Xitoy Tibetda dunyodagi eng yirik GESni quradi. Retrieved from www.qalampir.uz: <https://qalampir.uz/uz/news/khitoy-tibetda-dunedagi-eng-yirik-g-esni-k-uradi-112025>
5. uz24.uz. (Toshkent, 12 07). O'zbekiston farvonlik indeksida Markaziy Osiyoda ikkinchi o'rinni egalladi, dunyoda esa 86-o'rin. Retrieved from uz24.uz: <https://uz24.uz/uz/articles/indeks-24-12-7>
6. www.kun.uz. (2017, 11 09). Qachon qayta tiklanuvchi energiya manbalariga to'liq o'tiladi? Retrieved from www.kun.uz: <https://kun.uz/80548291?q=%2F80548291>
7. Вутянова, Я. (2013, Москва). Энергетическая политика как фактор геополитического влияния России. Энергетическая политика как фактор геополитического влияния России.
8. Миллер, Н. (2009). Государственная энергетическая политика в постсоветской России: этапы и особенности развития. Москва.
9. Ромапюк, Л. (1999, 12 1). Приоритетные направления новой энергетической политики в условиях устойчивого развития. Экологическая безопасность.